

# KURSANTLARNING BILISH FAOLLIGINI OSHIRISHDA YOZUVNI O'RGATISHDAGI QIYINCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,  
Nargiza Shirinova

**Annotatsiya:** Maqolada ingliz tili darslarida kursantlarni yozuvhga o`rgatish muammolari yoritilib, undagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** yozuv, ko`nikma, malaka, qobiliyat, usul, vosita.

Kursantlarning nutq faoliyati turlari bo`yicha bilish faolligini oshirishning yana bir mahsuli **yozuvdir**. Yozish jarayonida kursantlar matn mazmunini yozma izhor etishlari uchun mos keluvchi graffik usulni, ya`ni yozma nutqni tanlashlari kerak. Fikrni yozma bayon qilishdan oldin kursantlar uni to`gri rejalashtirish, shuningdek, undagi so'z va gaplarning grammatik qurilishini ham to`g`ri tanlay olish bo`yicha bilish faolligi oshirilishi zarur. Shuningdek, o'rganuvchilarning yozuv ko`nikmasini shakllantirish masalalari rejalashtirish muammolari, so'z tanlash muammolari, grammatik masalalar, kognitiv muammolar va boshqa bir qator muammolar bilan bog'liqdir, ushbu jarayonlar bo`yicha ularning bilish faolligi oshirilishi zarur. Ularni quyida ko`rib chiqamiz:

*So'z tanlash muammolari.* Biz kursantlarga fikrlarini yozma ravishda to`g`ri ifodalashni o`rgatishimiz zarur, buning uchun ularning to`g`ri so`z tanlashlari, kontekstual so`zlarni anglay olishlari, gaplarning sintaktik jihatdan to`g`ri tuza olishlari kabi ko`nikma va malakalarini shakllantirishimiz zarur. Afsuski, kursantlarimizning yozuv ko`nikmasini shakllantirish jarayonida ularning so`z va iboralarni to`g`ri tanlay olmasliklari, shuningdek, sohaviy, ya`ni harbiy atamalarni qo`llashda qiynalishlarining guvohi bo`lmoqdamiz.

*Imloviy xatolar.* Kursantlarda uchrayotgan imloviy xatolar boshqa tillarning ta'siri, turlicha talaffuzlar va boshqa tarixiy omillarning uchrayotgani bilan bog`liqdir.

*Bosh harfda yozish bilan bog`liq muammolar.* Bosh harfda yozish bilan bog`liq muammolar odatda tillar orasidagi nomuvoffiqliklar masalan, hafta kunlarining ingliz tilida bosh harfda yozilishi *Sunday, Monday, Tuesday*, yoki tillar nomlanishining bosh harfda yozilishi *Uzbek, English, French...* kabilar sababli kelib chiqmoqda.

*Grammatik muammolar.* Yozish paytida ikkinchi tilni o'rganayotgan kursantlarimiz bir qator grammatik qiyinchiliklarga duch kelishadi. Tajribalarga asosan, ikkinchi tilni o'rganuvchilar zamonlar, fe'llarning qo'llanilishi, olmoshlarga murojaat qilish va bog'lovchi so'zlar bilan bog'liq muammolarga ko'proq duch kelishadi. Masalan, o'zbek tilidagi ega va kesimning joylashuvi, ya`ni kesim gapning oxirida, egasi esa gapning boshida keladi (*Men harbiy oliy o`quv yurtida o`qiymen*). Ingliz tilida esa ega va kesimning yonma-yon kelishi ya`ni, *I study at Public Safety University of the Republic of Uzbekistan* kabi nomuvoffiqliklar mavjud. Yuqorida keltirilgan o`xshashliklar va farqlar borasida kursantlarning bilish faolligini oshirish ulardagi qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun muhim ahamiyatga ega.

*Rejalahshtirish muammolari.* Kursantlar yozuv turlaridan biri bo`lgan xat va insho yozish jarayonida uni rejalahshtirish bilan bog`liq bo`lgan bir qator qiyinchiliklarga duch kelishadi. Masalan, ularni qismlarga bo`lishdagi qiyinchiliklar, ularda asosiy g`oyalarni yorita olmaslik, mavzuga uzviy bog`liq bo`lmagan tushunchalarni keltirish, qismlar orasidagi uzviylikning ta`minlanmasligi, xulosa qismiga yetarlicha e`tibor qaratmaslik yozuvni tashkillashtirish bilan bog`liq bo`lgan muammolarni keltirib chiqaradi.

*Tinish belgilari bilan bog`liq bo`lgan muammolar.* Yuqorida keltirilgan muammolar bilan birga, tinish belgilardan o`rinli foydalanish ham asosiy muammolarimizdan biridir. Ba`zan ushbu muammo tillar orasidagi nomuvoffiqliklarga borib taqaladi. Masalan, ingliz va o'zbek tillarida xatlarning boshlanishi yoki tugatilishidagi nomuvoffiqlar, ulardagi ingliz tilida vergulning qatt`iy ishlatilishi kabi farqlar seziladi. Misol qilib aytganda, *Dear, Sir/Madam* kabi salomlashish qismida vergul qo`yilib, *Yours respectfully*, kabi tugatish qismida ham

ushbu tinish belgisidan foydalanilmoqda. O`zbek tilida esa xatlarning ushbu qismlarida tinish belgisi qo`yilmaydi.

Yuqoridagi *kamchiliklarni bartaraf etish* uchun quyidagi amallarni bajarish tavsiya etiladi:

Xorijiy manbalarga ko`ra, yozish bilish faolligini oshirishning mahsuli hisoblanib, ijodiy jarayon sifatida namoyon bo`ladi. Ushbu jarayonda o`qituvchilar kursantlarning fikrlarini izchil tartibga solishga yordam berislari, ya`ni yo`l ko`rsatuvchi vazifasini bajarishlari zarur. Olingan bilimni to`g`ri bayon qilish albatta, ko`p kuch talab qiladi, ya`ni yozuv ko`nikmalariga ega bo`lish izchil harakat va ko`plab amaliyot asosida shakllanadi.

Bizga ma`lumki, yozuv yetarli vaqtini talab qiladigan faoliyatdir. Kursantlardan yozuv bo`yicha bilish faolligini oshirish bir qator amallarni talab qiladi. Masalan, o`z fikrlarini tartibga solish, qoralamalar yaratish, ularni tahrirlash va xulosalarini yozish kabilar kursantlarning yozuv ko`nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, kursantlarning yozuv bo`yicha bilish faolligini oshirish bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi. Matnni qismlarga ajratish, grammatik va stilistik talablarga asoslanib jumlalar tuzish, so`zlarni o`rinli tanlash va matn qismlarini mazmunan uzviy bog`lash kabi ishlar yozuv ko`nikmasini shakllantirishdagi omillar hisoblanadi.

Yozuv bo`yicha bilish faolligini oshirishda kursantlarning qiziqishini hisobga olgan holda materialni tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yozish uchun tanlanadigan material kursantlarning yosh xususiyatlari va kelajak kasbi bilan bog`liq bo`lsa, ularning nafaqat o`zbek tilida, balki ingliz tilida ham mavzu bo`yicha fikr yuritishlari va uni yozma nutqda izhor etishlari uchun zamin yaratiladi, va aksincha yozish uchun tanlangan material ularning yoshi va hayot tarsiga mos kelmasa, kursantlar qiziqishining pasayishiga olib keladi, ya`ni bilish faolligi pasayadi.

Kursantlarning yozuv bo`yicha bilish faolligini oshirishda o`qituvchining tutgan o`rni ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda o`qituvchi baholovchi emas, balki hamkor sifatida o`zini namoyon qilishi zarur. Shu bilan bir qatorda, o`qituvchi

diqqatini yozishdagi kamchiliklarga emas, balki uning yutuqlariga qaratishi lozim, ularni rag'batlantirish maqsadida qo'llab-quvvatlovchi sharhlar yozsa kursantlarning yozuv bo'yicha bilish faolligini oshirishga osonlikcha erishish mumkin, shuningdek, o'qituvchining noo`rin tanqidi va baholashi ushbu jarayonga salbiy ta`sir ko`rsatadi.

Ma`lumki, yozish jarayoni ko'pgina lingvistik komponentlardan foydalanishni talab qiladigan murakkab faoliyatdir. Yozuv jarayonidagi qiyinchiliklarni psixologik, lingvistik va kognitiv muammolar sifatida qarash mumkin. Tadqiqotlarda keltirilishicha, yozish doimiy mehnat va keng ko'lamli amaliyotni talab qiladigan va ko'plab omillarni o`z ichiga olgan kognitiv faoliyatdir. Kursantlarimiz biron bir mavzu bo'yicha yozishga kirishishar ekan uning mazmuni, maqsadi, yozish tartibi, lug'at, grammatika, imlo va mexanika kabi bir nechta ko`nikmalarga ega bo`lishlari zarur.

### Bibliography

Shahnoza, A. (2022). PROFILAKTIKA INSPEKTOR TALABALARIDA MUSTAQIL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH.

Aripova, S. (2022). PROFILAKTIKA INSPEKTOR TALABALARIDA MUSTAQIL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 20), 587-591.

Aripova, S. (2020). THE PROBLEMS OF APPLYING DIFFERENT METHODS TO THE INDEPENDENT LEARNING PROCESS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8(12)*.

Abduazizovna, P. Z. (2022). TALIM TIZIMIDA «ASSESSMENT» HAMDA «EVALUATION» TUSHUNCHALARI VA ULARNING FARQI (The concepts of "assessment" and "evaluation" in the education system and their differences).

Abduazizovna, P. Z. (2025). THEORETICAL-METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF EXERCISES IN THE DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE OF LEARNERS. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 72(1), 273-282.

Abduazizovna, P. Z. (2025). PRINCIPLES OF EFFECTIVE FORMATIVE ASSESSMENT IN EFL/ESL. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 71(1), 202-207.

Abduazizovna, P. Z., & Lazokat, I. (2025). ASSESSMENT FOR LEARNING AND ITS BENEFITS. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 73(2), 337-343.

Abduazizovna, P. Z. (2025, March). DIDACTIC FUNDAMENTALS OF IMPROVING LEXICAL COMPETENCE (B2 LEVEL). In *International Educators Conference* (pp. 135-142).

Shirinova, N. (2024). DEVELOPING COGNITIVE ACTIVITY OF CADETS IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH. *ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ*, (54-4).

Ширинова, Н., & Ширинова, Н. (2022). ПОВЫШЕНИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ КУРСАНТОВ ЭКОНОМИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 744-746.

Shirinova, N. D., & Shirinova, N. D. (2023). LISONIY PARALLELIZM HODISASIGA DOIR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1), 51-56.

Shirinova, N. D., & Davlatova, M. K. MORPHOLOGICAL WAY OF DIFFERENTIATION OF SUBSTANCE AND ATTRIBUTIVE MEANINGS IN THE LANGUAGE SYSTEM. *ILMIY XABARNOMA. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК* Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура, (1), 86-89.

Shirinova, N. (2018). ORGANIZATION OF THE ENGLISH TEACHING PROCESS. *Irrigatsiya va Melioratsiya*, (2), 61-64.

Nilufar, S., Nargiza, S., & Nosir, R. (2023). Study of the gradual relations in differentiation of substance and attributive meanings in the english and uzbek languages.

Tulkin, S., Nargiza, S., & Nilufar, S. (2022). ANALYSIS OF THE TRANSLATION OF ZAHIRIDDIN BABURS POEMS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 3(02), 42-48.

Djabarovna, S. N. (2021). Synonymous pairs of lexical units. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 910-913.

Ширинова, Н. (2010). Ўзбек тилида предметлик ва белги-хусусият маъноларини фарқлаш воситалари: Филол. фан номз.... дисс.

Shirinova, N. D. (2006). The expression of the relation of substance and attribute in the language system. *The Problems of Philology and Methodics.–Bukhara*, 98-101.

Darvishova, G. K. S. B. I., & MAVQEI, A. I. ORIENSS. 2023.№ 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sharlotta-bronte-ijodida-ayolning-ijtimoiyavqe> (дата обращения: 10.10. 2023).

Дарвишова, Г. К. (2022). По Педагогическом Мастерстве Учителя Иностранного Языка В Процессе Урока. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3, 122-125.

Kenabayevna, D. G. (2025, March). THE IMPORTANCE OF GRAMMAR GAMES IN TEACHING ENGLISH. In *International Educators Conference* (pp. 107-115).

Darvishova, G. (2024). ШАРЛОТТА БРОНТЕНИНГ ИНГЛИЗ АДАБИЁТИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ. *Наука и инновация*, 2(23), 91-96.

Kenjabayevna, D. G. (2025, March). CLASSROOM BEHAVIOR IS A MANAGEMENT ISSUE. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 220-225).

Abduazizovna, P. Z., & Lazokat, I. (2025). ASSESSMENT FOR LEARNING WITH ARTIFICIAL INTELLIGENCE. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 73(2), 330-336.

Иканова, Л. (2025, March). ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПРАВ ОСУЖДЕННЫХ И ЛИШЕННЫХ СВОБОДЫ ЛИЦ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН И ИХ ВНЕДРЕНИЕ В ПРАКТИКУ. In *International Educators Conference* (pp. 116-120).

Ikanova, L. S. Q. (2024). SUDLANGAN SHAXSLAR VA MAHKUMLARNING XULQ ATVORI VA QAYTA JINOYAT SODIR ETISHINI BARTARAF QILISHDA TA'LIMNING TA'SIRI (AQSH TAJRIBASI MISOLIDA). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(1), 433-439.

Ikanova, L. S. (2019). The impact of materials development, critical pedagogy and lgbt's issue on the language planning and policy. *Вестник педагогики: наука и практика*, (48), 68-70.

Иканова, Л. (2024). ОБРАЗОВАНИЕ В ТЮРЬМЕ: ФУНДАМЕНТАЛЬНОЕ ПРАВО И ВАЖНЫЙ ИНСТРУМЕНТ. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 3, No. 5, pp. 269-275).

Sayyora, I. (2025, April). TEACHING BASIC CEFR AND IELTS SKILLS TO CADETS IN A MILITARY SETTING. In *International Educators Conference* (pp. 199-204).

Sayyora, I. (2025, April). CASE STUDIES ON TEACHING ENGLISH TO CADETS: METHODS FOR CEFR AND IELTS IN A MILITARY SETTING. In *International Educators Conference* (pp. 241-246).

Sayyora, I. (2025). INTEGRATING INNOVATIVE TECHNOLOGIES TO ENHANCE CADETS'LINGUISTIC COMPETENCE THROUGH BLENDED LEARNING IN UZBEKISTAN'S CEFR AND IELTS PREPARATION. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 73(2), 325-329.

Sayyora, I. (2025). INTEGRATING INNOVATIVE TECHNOLOGIES INTO ENGLISH LANGUAGE LEARNING AND CERTIFICATE OBTAINING FOR CADETS IN UZBEKISTAN. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 73(2), 320-324.